

**O'TKIR YUQUMLI ICHAK INFEKTSIYALARI EPIDEMIOLOGIK  
XUSUSIYATLARI VA ULARNING EPIDEMIOLOGIK NAZORATINI  
TAKOMILLASHTIRISH (QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
MISOLIDA)**

*Tajibayeva D.A Toshkent tibbiyot*

*akademiyasi epidemiologiya kafedrasi magistri*

*Saidkasimova N.S Toshkent tibbiyot*

*akademiyasi epidemiologiya kafedrasi dotsenti, PhD*

*Xamzayeva N.T Toshkent tibbiyot*

*akademiyasi epidemiologiya kafedrasi assistenti*

**Annotatsya:** patogen enterobakteriyalar, shartli patogen qo‘zg‘atuvchilar va viruslar chaqiradigan, oshqozon-ichak traktining jarohatlanishi, intoksikatsiya va degidratatsiya, hamda turli asoratlar bilan kechadigan kasallikkardir.

**Kalit so‘zlar:** O‘tkir yuqumli ichak kasalliklari, *Salmonella*, *Shigella*, epidemiologiya

O‘tkir yuqumli ichak infeksiyalari, tibbiyot fanining yutuqlari va amaliy salomatlik tizimi rivojiga qaramasdan, hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Har yili butun dunyoda, JSST ning ma'lumotlariga ko‘ra, 1 milliarddan ortiq diareya kasalliklari qayd etiladi, har yili 4 million ortiq o‘lim xolatlari aniqlanadi, ulardan 65-70% ni 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil qiladi. Bundan tashqari, o‘tkir ichak infeksiyalari sog‘liqni saqlash tashkilotlariga va mamlakat iqtisodiga katta zarar yetkazadi [1]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kasallanish xolati bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilganimizda 3 milliondan ortiq o‘lim xolatlari, ularning 1,87 millioni (60%) 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar bo‘lib, 10ta bolalar o‘limidan 8tasi O‘YuIK laridan ekanligini aniqladik. [28-32]. Rossiyada guruhli epidemik o‘choqli kasalliklarning eng yuqori qismi O‘YuIK lar xisoblanadi. rasmiy statistik ma'lumotlarga ko‘ra, har yili taxminan 500 ta O‘YuIK o‘chog‘i qayd etiladi, bu barcha guruhli o‘choqlarni ro‘yxatga olishning 27,6 dan 76,5 foizigacha to‘g‘ri keladi [46]. Dunyo miqyosida 1990-yildan boshlab O‘YuIK o‘limning va aholi umrining qisqarishining yetakchi o‘n sababidan biri hisoblanadi. Diareya va uning og‘ir shakllaridan kelib chiqqan o‘limlarning 50% dan ortig‘i 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga to‘g‘ri keladi [5,6,7].

Mintaqalarda urbanizatsya hisobiga sanitariya sharoitlari yaxshilanishi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilishni kuchaytirish va laboratoriya diagnostikasi usullari yaxshilanishi bilan bakteriyal infeksiyalar uchrashi sezilarli darajada kamaygan, shu bilan birga O‘YuIKni keltirib

chiqaradigan asosiy sabablari viruslar bo‘lib qolmoqda [8,9]. Viruslar keltirib chiqaradigan O‘YuIK diareyaning ulushi turli mamlakatlarda 20% dan 70% gacha o‘zgarib turadi [10].

O‘YuIK ning bakteriologik etiologyasi sababchilari eng ko‘p uchraydiganlar orasida Escherichia, Shigella, Campylobacter va Salmonella kiradi [11,12].

Salmonellyozlar, “sivilizatsiya kasalliklari” deb atalgan kasalliklar, shu qadar keng tarqalganki, hozirgi kunda hech bir mamlakatda ularni yo‘qotish masalasi qo‘yilmaydi, faqat kasallanish darajasini pasaytirish haqida gapiriladi [16]. Salmonellyozlar o‘tkir ichak infeksiyalari orasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Dizenteriya, qorin tifi, esherihiozlar, holera bilan farq qilgan holda, ular hayvonlar va odamlar uchun tabiiy sharoitlarda patogen bo‘lgan mikroorganizmlar tomonidan chaqiriladi. Tabiatda salmonella uchun ikkita rezervuar mavjud — hayvonlar va odamlar [13,15,16]. So‘nggi o‘n yil ichida salmonellyoz kasalliklarining epidemiologik xususiyatlari o‘zgargan, xususan, odamlarning salmonellaga chalinish holatlari, qishloq xo‘jaligi hayvonlari, parrandalar va atrof-muhitdagi infeksiyalar soni oshgan. Kasalxona ichidagi salmonellyoz o‘choqlari soni ko‘paygan, salmonellyozlarning etiologik tuzilishi va epidemik jarayon xarakteri sezilarli darajada o‘zgargan [13,17]. Bunga aholi hayotidagi ijtimoiy o‘zgarishlar, masalan, xususiy mulkchilikning kengayishi, aholi migratsiyasining kuchayishi, jamoat ovqatlanish tizimining tez rivojlanishi va boshqalar sabab bo‘lgan [16].

Salmonellyozlar epidemiologiyasining jadal o‘rganilishi, “zooantropoz” epidemik jarayonlari mavjudligini tasdiqlovchi ishonchli ma’lumotlar to’planishiga sabab bo’ldi. Bunday epidemik jarayonlar namoyon bo’lishida S.enteritidis va S.typhimurium ustuvorlik kiladi. Ularning epizootik jarayonining namoyon bo’lishi ham bir biridan katta farq qiladi. Odamlardagi salmonellyoz etiologiyali oziq-ovqat toksikoinfektsiyasi salmonella shtammalarining parrandalarda sirkulyatsiyasi tufayli yuzaga kelib, infektsianing asosan kasallangan parranda va hayvonlardan olingan ozik-ovqatlarni istemol qilish orqali yuqishi bilan xarakterlanadi. Insonlardagi salmonellyozlarning antropoz turi salmonellalarining o‘ziga hos biologik turi – antropoz shtammlar tufayli yuzaga keladi va odam organizmiga moslashgan bo‘lib, insondan insonga asosan maishiy-muloqot yo‘l bilan tarqalish hususiyatiga ega [18].

Epidemiologik kuzatuvlar ko‘rsatishicha, odamlarda zooantropoz salmonellyozi faqat ovqat toksikoinfektsiyalarida, ya’ni salmonellalar soni haddan tashqari ko‘p bo‘lganda rivojlanishi mumkin. Bundan farqli o’laroq antropoonoz turi - shifoxona salmonellyozi bemorlarni parvarish qilishda har xil predmetlar, tibbiy xodimlar qo’llari orqali yuqishi yuz beradi, ya’ni qo’zg’atuvchining ancha kichik dozasida ham kasallik yuqishi mumkin. Salmonellyozlar yetkazgan ijtimoiy-iqtisodiy zarar yetarlicha [19].

Shigellyoz (dizenteriya) butun dunyo bo'ylab tez tarqaladigan yuqumli kasalliklardan biridir. Har yili dunyoda shigella bilan kasallangan 200 million kishi ro'yxatga olinadi. Shu bilan birga kasallanish holatlarining haqiqiy soni hatto iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham ro'yxatga olingan kasallikdan deyarli 10 baravar ko'p. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda yiliga 1 millionga yaqin odam shigellyozdan vafot etadi. So'nggi yigirma yil ichida Afrika, Janubiy Osiyo va Markaziy Amerikada shigella dizenteriya serotipi 1 (Sd1) sabab bo'lgan yirik epidemiyalar sodir bo'ldi. 1993-1995 yillarda Afrika qit'asining bir qancha Markaziy va Janubiy mamlakatlarida epidemiyalar qayd etilgan. 1994 yilda Zairda katta epidemiya paytida Ruanda qochqinlari orasida avj olgan birinchi oyda 20 mingga yaqin bemor vafot etdi. [33].

O'tkir yuqumli ichak infektsiyalari, odamlar uchun patogen bo'lgan Escherichia coli shtammlari tomonidan keltirilgan, pediatriyada dolzarb ahamiyatga ega, chunki ular keng tarqalgan [36]. Ko'pincha Moskva shahar kasalxonalarida O'YuIK tashxisi bilan yotqizilgan bolalarda Esherikhiozlarni diagnostika qilishning chastotasi 15,1% ni tashkil etadi (monoinfektsiya – 4,8%, birlashgan infektsiya – 10,3%). Birlashgan esherikhioz infektsiyasi 70,4% holatlarda esherikhiyalar va ichak viruslari assotsiatsiyasi bilan bog'liq, 17,3% holatda esherikhiyalar va bakteriyalar assotsiatsiyasi, 12,3% holatda esa esherikhiyalar, patogen viruslar va bakteriyalar assotsiatsiyasi bilan bog'liq [37].

Qoraqolpoqiston Respublikasida Orol dengizining qurib borishi natijasida yuzaga kelgan ekologik qiyinchiliklar ushbu hududning florasi, faunasi va iqlim sharoitlariga katta zarar yetkazdi. Ayniqsa, bu mintaqada yashayotgan aholi, jumladan, tug'ish yoshidagi ayollar va bolalarning sog'lig'ida salbiy o'zgarishlar kuzatilmoxda, bu esa kasalliklarning ko'payishi bilan o'z aksini topmoqda. Ekologik muammolar nafaqat odamlar, hayvonlar va o'simlik dunyosiga, balki mikroorganizmlarning xususiyatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda yuqumli kasalliklar, xususan, ichak infeksiyalarining klinik kechishi va ularning epidemik jarayoni sezilarli darajada o'zgargan. Natijada, ushbu kasalliklarning etiologiyasini aniqlash jarayoni yanada murakkablashmoqda. Oxirgi davrda o'tkir ichak kasalliklarining yengil shakllari keng tarqalgan, og'ir holatlar va intoksikatsiya holatlari kamaygan, retsdiv va letal holatlar esa sezilarli ravishda qisqargan. Shu bilan birga, kasallik qo'zg'atuvchilarining xususiyatlaridagi o'zgarishlar mazkur mikroorganizmlarni batafsil o'rganishni talab qiladi.

Bu vaziyat o'tkir ichak infeksiyalarini sababchilari va ularning uchrash xususiyatlariga alohida e'tibor qaratishni zarus qiladi. Mazkur masalani yanada chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi ko'rinish turibdi. Respublikamiz va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari, shu jumladan Qozog'iston hududida o'tkir ichak kasalliklarini keltirib chiqaruvchi asosiy qo'zg'atuvchilar qatorida *Salmonella*, *Shigella*, *Iersinae*, *Proteus*, *Campylobacter* va boshqa

mikroorganizmlar mavjud. Ayniqsa, shigellalarning tarqalish darajasiga qarab mintaqalar uch toifaga bo‘linadi: birinchisi – *Shigella zonnei* qo‘zg‘atuvchisi ko‘proq uchraydigan hududlar; ikkinchisi – *Shigella flexneri* va *Shigella zonnei* teng darajada tarqalgan hududlar; uchinchisi esa – asosan *Shigella flexneri* keng tarqalgan mintaqalar. Ma’lumki, mamlakatimiz uchinchi guruh mintaqasiga kiradi.

Bundan tashqari, bakteriyalar va oddiy hayvonlar bilan bir qatorda, ichak infeksiyalariga sabab bo‘luvchi viruslar ham mavjud. Masalan, **rotavirus** diareya bilan kechadigan kasalliklarning asosiy sababi sifatida ko‘rsatilib, 1997-2001 yillarda Rossiya Federatsiyasida ushbu virus bilan kasallanish holatlari ikki baravarga oshgani qayd etilgan. Bemorlarning aksariyati (70% dan ortig‘i) sovuq faslda, 91% holatda esa bolalar orasida aniqlangan.

Insonlar orasida o‘tkir ichak infeksiyalarining kelib chiqishida ba’zan ichak adenoviruslari, enteroviruslar va ularga o‘xshash boshqa virus avlodlari ham muhim rol o‘ynaydi. Mazkur kasalliklarning etiologiyasiga nazar tashlaganda, qo‘zg‘atuvchilarning xilma-xilligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunga ijtimoiy-iqtisodiy omillar, iqlimiylar va geografik sharoitlar, shuningdek, kasallanganlarning yoshi, ularning immun tizimi holati va yashash muhitlari muhim ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida salmonellyozlarning epidemiologik va epizootologik nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish va amalga oshirish uchun aholining kasallanish holatini, qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalar orasida ushbu yuqumli kasallikning epizootik jarayonini birgalikda maqsadli epidemiologik tashxislash, tahlil qilish, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni rejalashtirish va uslubiy jihatdan ta’minlashga imkon beradigan salmonellyozlar ustidan epizootolog-epidemiologik nazorat dasturini ishlab chiqish, davlat ichida va davlatlararo darajada kasallanishni nazorat qilish uchun zarur.

Salmonellyozlar bo‘yicha noxush epidemiologik vaziyat, bir qator ilmiy masalalarni hal etishni talab qiladi. Ulardan asosiyлари: salmonellyozlarning epidemik, epizootik jarayonini o‘rganish va unga salmonellalarning biologik xususiyatlari (virulentligi, mikroblarga qarshi prepararlarga sezgirligi va boshqa xususiyatlari) o‘zgaruvchanligining ta’sir qilishi mumkinligini o‘rganish; salmonelyozlar etiologik tarkibi o‘zgarishini belgilovchi omillarni aniqlash va boshqa xususiyatlarini o‘rganish kiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Saidkasimova, N. S., Matnazarova, G. S., & Mirtazayev, O. M. (2018). Some epidemiological patterns of salmonellosis in Uzbekistan. *Biology and Medical problems*, 4, 95-96.
2. Saidkasimova, N. S., Mirtazaev, O. M., Matnazarova, G. S., Toshbaev, B. Y., & Khatamov, A. H. (2021). Epidemiological and Epizootological Characteristics of Salmonellosis and Improvement of Their Epidemiological Control. *JournalNX*, 610-618.

3. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., Toshboev, B. Y., & Khamzaeva, N. T. (2020). SCIENTIFIC, METHODOLOGICAL AND ORGANIZATIONAL BASES OF MANAGEMENT OF THE EPIDEMIC PROCESS IN CASE OF SALMONELLOUS INFECTION IN UZBEKISTAN. *Central Asian Journal of Pediatrics*, 3, 5-14.
4. Saidkasimova, N. S., & Mirtazaev, O. M. (2020). Epidemic Process of Salmonellosis in Tashkent. *Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology*, 14(4).
5. Sattarova, N. A., Mirtazaev, O. M., & Saidkasimova, N. S. (2009). Modern problems of epidemiological process of Salmonelloses in Uzbekistan. *Вестник Санкт-Петербургской государственной медицинской академии им. ИИ Мечникова*, (2), 193-194.
6. Saidkasimova, N. S., Mirtazaev, O. M., & Matnazarova, G. S. (2023). Salmonellyozlarda epidemiologik va epizotologik nazorat.
7. Миртазаев, О. М., Сайдкасимова, Н. С., Матназарова, Г. С., & Хатамов, А. (2022). характеристика проявления эпидемического процесса сальмонеллёза. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(2), 18-31.
8. Миртазаев, О. М., & Сайдкасимова, Н. С. (2016). Современные аспекты эпидемиологии сальмонеллёзов в Республике Узбекистан. *Инфекция, Иммунитет. Фармакология*, 7, 103-106.
9. Сайдкасимова, Н., & Миртазаев, О. (2021). ўзбекистонда сальмонеллёзларнинг эпизоотологик ва эпидемиологик назоратини такомиллаштириш.
10. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., Toshboev, B. Y., & Khamzaeva, N. T. (2020). SCIENTIFIC, METHODOLOGICAL AND ORGANIZATIONAL BASES OF MANAGEMENT OF THE EPIDEMIC PROCESS IN CASE OF SALMONELLOUS INFECTION IN UZBEKISTAN. *Central Asian Journal of Pediatrics*, 3, 5-14.
11. Саттарова, Н. А., Миртазаев, О. М., Камилов, Д. Ю., Аглиулина, С., & Якубова, Ф. (2011). Характеристика эпидемического процесса сальмонеллезов в г. Ташкенте. Ташкент. *Вестник ТМА*, 2, 102-104.
12. Миртазаев, О. М., Саттарова, Н. А., Сайдкасимова, Н. С., & Мустанов, А. Ю. (2011). Современные эпидемиологические особенности сальмонеллезов в Узбекистане. In *Актуальные проблемы эпидемиологии на современном этапе: матер. Всерос. науч.-практ. конф. с междунар. участием, посвящ. 80-летию каф. эпидемиологии и доказат. медицины (г. Москва, 13-14 окт.)*. (p. 275).
13. Сайдкасимова, Н. (2021). Алгоритм проведения эпизоотолого-эпидемического надзора за сальмонеллезами в Узбекистане.
14. Сайдкасимова, Н. С., & Миртазаев, О. М. (2019). Характеристика эпидемического процесса сальмонеллезов в городе Ташкенте.
15. Кенжаева, М. А., Матназарова, Г. С., Сайдкасимова, Н. С., & Хамзаева, Н. Т. (2024). Оценка современных эпидемиологических особенностей шигеллёза. *Journal of new century innovations*, 46(2), 190-197.
16. Кенжаева, М. А., Матназарова, Г. С., Сайдкасимова, Н. С., & Хамзаева, Н. Т. (2024). Оценка современных эпидемиологических особенностей шигеллёза. *Journal of new century innovations*, 46(2), 190-197.